

TOSHKENT DAVLAT STOMATOLOGIYA INSTITUTI
№3 SONLI KENGASH BAYONNOMA QARORI

Toshkent sh.
Rais – professor N.Q.Xaydarov
Kotib – dotsent A.A.Yuldashev

01 noyabr 2022 yil

Institut Kengashi raisi, professor N.Q.Xaydarov quyidagi kun tartibi asosida Kengash majlisini ochdi:

Kun tartibi:

1. Bolalar stomatologiya fakultetida o'quv, o'quv uslubiy ishlar holati xamda uni takomillashtirish chora tadbirlari
Ma'ruzachi: Fakultet dekani t.f.n., dotsent D.Sh.Abdullayev
2. "Yosh olimlar" kengashining faoliyati va istiqbol rejalari
Axborotchi: "Yosh olimlar" kengashi raisi PhD., dotsent Mun T.O.
3. Magistraturada o'qitishni tashkil etish holati va kelgusidagi vazifalar
Ma'ruzachi: Magistratura bo'lim boshlig'i t.f.n., dotsent M.A.Xalmatova
4. Professor o'qituvchilarni tanlov asosida lavozimga saylash.
5. Dissertatsiya mavzularini tasdiqlash
6. O'quv-uslubiy ishlarni tasdiqlash.
7. Turli masalalar

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala: Bolalar stomatologiya fakultetida o'quv, o'quv uslubiy ishlar holati xamda uni takomillashtirish chora tadbirlari

Ma'ruzachi: Fakultet dekani t.f.n., dotsent D.Sh.Abdullayev

QAROR QILINDI:

1. Fakultetda ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'qituvchilar salohiyati oshirilsin;
Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari
Muddat – doimiy
2. O'quv adabiyotlar bilan ta'minlansin va o'quv adabiyotlar yaratish bo'yicha ishlar jadallashtirilsin;
Mas'ul – ARM boshlig'i va barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy
3. Ta'lim sifatini oshirish yo'lida xorijiy hamkorlar o'rganib chiqilsin va ularning uslublari joriy qilinsin;
Mas'ul – Xalqaro hamkorlik ishlari prorektori, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlari
Muddat – 1 oy muddatda
4. Zamonaviy o'quv adabiyotlar va elektron o'quv ishlanmalar yaratish choralari ko'rilsin.
Mas'ul – Barcha kafedra mudirlari
Muddat – doimiy
5. Kredit modul tizimiga o'tish munosabati bilan mustaqil ishlash uchun o'quv materiallar yaratilsin.
Mas'ul – Barcha kafedra mudirlari

Muddat – doimiy

6. O'quv xonalar kerakli zamonaviy asbob uskunalar bilan jihozlansin.

Mas'ul – Ishlar boshqarmasi boshlig'i, bosh hisobchi, reja-moliya bo'limi boshlig'i
Muddat – doimiy

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi birinchi masala: Magistraturada o'qitishni tashkil etish holati va kelgusidagi vazifalar

Ma'ruzachi: Magistratura bo'lim boshlig'i t.f.n., dotsent M.A.Xalmatova

QAROR QILINDI:

1. Mustaqil ishlar bilan shug'ullanish uchun magistratura talabalariga elektron kutubxona va elektron adabiyotlar bazasi shakllantirilsin va topshiriqlar bazasi ishlab chiqilsin;

Mas'ul – Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, ARM boshlig'i va magistratura mutaxassisligida faoliyat olib borayotgan kafedra mudirlari
Muddat – 1 oy muddatda

2. Ta'lim jarayoni sifatini oshirish uchun xorijiy tajriba asosida dars berishda ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilsin va zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratilsin;

Mas'ul – O'quv ishlari bo'yicha prorektor va magistratura mutaxassisligida faoliyat olib borayotgan kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

3. Amaliy ko'nikmalarni egallashni yaxshilash maqsadida dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari professor-o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etilsin;

Mas'ul – Barcha prorektorlar va magistratura mutaxassisligida faoliyat olib borayotgan kafedra mudirlari
Muddat – doimiy

Qaror ovozga qo'yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Ko'rib chiqilgan kun tartibidagi yettinchi masala: Turli masalalar

1. Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Ekspertlar hay'atining o'quv-uslubiy bo'lim va komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan o'quv adabiyotlari nashr etishga tavsiya etilsin

Mas'ul – O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, Toshkent davlat stomatologiya instituti o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ekspert hay'ati raisi
Muddat – 3 kun mudatda

Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.R.Baymakov zimmasiga yuklatilsin.

Institut Kengashi raisi



N.K.Xaydarov